



UDK 314.17:316.37

Sanjar BOYMURODOV,

Qarshi davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

E-mail: sanjarboymurodov0377@list.ru

Qarshi davlat universiteti professori, falsafa fanlari doktori S. Choriyev taqrizi aosida

DEMOGRAFIK O'SISHNING IJTIMOY-IQTISODIY OQIBATLARI VA SHAXS IJTIMOYIY QIYOFASIGA TA'SIRI

Аннотация

Demografik o'sishning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari shaxs ijtimoiy qiyofasini, orzu-istaklarini, hayotiy qadriyatlarini va ijtimoiy munosabatlari o'zgarishining yuzaga kelishiga sabab bo'layotganligi tahlil qilingan. Shuningdek, demografik o'sish qishloq xo'jaligi sohasida yangi islohotlarni amalga oshirish lozimligini yuzaga keltirganligi, bu esa qishloq aholisida yangi islohotlar bilan bog'liq yangicha xarakter kasb etayotganligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Demografik o'sish, shaxs ijtimoiy qiyofasi, qishloq aholisi, tadbirkorlik, kasbiy mahorat, qishloq xo'jaligi.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКОГО РОСТА И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА СОЦИАЛЬНЫЙ ОБЛИК ЛИЧНОСТИ

Аннотация

В данной работе анализируется влияние социально-экономических последствий демографического роста на трансформацию социального облика личности, её стремлений, жизненных ценностей и социальных отношений. Также рассматривается тот факт, что демографический рост обуславливает необходимость реализации новых реформ в сельскохозяйственном секторе, что, в свою очередь, формирует у сельского населения новые черты характера, связанные с адаптацией к этим преобразованиям.

Ключевые слова: демографический рост, социальный облик личности, сельское население, предпринимательство, профессиональное мастерство, сельское хозяйство.

SOCIO-ECONOMIC CONSEQUENCES OF DEMOGRAPHIC GROWTH AND ITS IMPACT ON THE SOCIAL IDENTITY OF THE INDIVIDUAL

Abstract

This article analyzes how the socio-economic consequences of demographic growth lead to changes in an individual's social identity, aspirations, life values, and social relations. Furthermore, it explores how demographic growth necessitates new reforms in the agricultural sector, which in turn fosters new characteristics among the rural population aligned with these ongoing transformations.

Keywords: Demographic growth, social identity of the individual, rural population, entrepreneurship, professional skills, agriculture.

Kirish. Mamlakatimizda xalqimizning turmush tarzi farovonligini oshirish borasida qilinayotgan ishlar kishilik jamiyatidagi har qanday o'zgarishlarni e'tibordan chetda qoldirmasligimizni talab qiladi. Demografik o'sish bilan bog'liq o'zgarishlar ham har doim ijtimoiy falsafaning asosiy masalasidan biri bo'lmog'i lozim. Shaxs va jamiyat bir biri bilan o'zaro aloqador bo'lgani bois jamiyatdagi har qanday o'zgarish shaxs ijtimoiy qiyofasiga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, demografik o'sishning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari shaxs ijtimoiy qiyofasi, shaxsning ijtimoiy ideallari, hayotiy pozitsiyasi o'zgarishiga sabab bo'lmoqda, bir qator ijtimoiy illatlar paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Muhokama va natijalar. Shaxs va jamiyat bir biri bilan doimiy o'zaro aloqadorligi sababli jamiyatda sodir bo'lgan har qanday o'zgarish shaxsning ijtimoiy xususiyatlarida aks etadi. Jamiyatda sodir bo'ladigan o'zgarishlar unda yashaydigan shaxsdan yangicha ijtimoiy munosabatlarni, yangicha qadriyatlarni, yangicha ko'nikmalarni o'zlashtirishni talab qiladi. Jamiyatdagi o'zgarishlar shaxs ijtimoiy qiyofasida yangicha mazmun kasb etadi.

Mamlakat aholisining o'sish va shaxs ijtimoiy qiyofasi o'rtasidagi aloqadorlik haqida fikr yuritganda ham shunday

deyish mumkin. Bu aloqadorlik bevosita emas, balki bilvosita aloqadorlik sifatida xarakterga ega. Jumladan, mamlakat axolisi sonining o'sib borishi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarining o'zgarishiga olib keladi. Demografik vaziyat o'zgarishining turli oqibatlari esa, shaxs ijtimoiy qiyofasida aks etadi. Bu masalaning tahlili quyidagi zanjir orqali aniqroq namoyon bo'lishi mumkin.

Mustaqillik davridagi mamlakatimiz aholisining demografik o'sishi bir qator ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu oqibatlar sababli shaxs ijtimoiy qiyofasida yangicha fazilatlarining namoyon bo'lishiga, bir qator ijtimoiy illatlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Aholi o'sish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning shaxs ijtimoiy qiyofasiga ta'sirini tahlil qilsak bu kabi savollarga javob topamiz.

Mamlakatdagi demografik o'sish jamiyatdagi ishlab chiqarishning kengayishiga olib kelmoqda, bu esa o'z navbatida shaxs ijtimoiy qiyofasida o'zgarishlar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Jumladan, aholi o'sish sur'atlarining kattaligi, mahsulot ishlab chiqarishni doimiy kengaytirib borishni talab qiladi. Chunki mamlakat aholisining o'sish, aholi moddiy va ma'naviy ehtiyojlari ortib borishini ham ketirib chiqaradi. Mamlakatimizda, masalan, o'tgan 2024 yilda

yalpi ichki mahsulotning o'sishi 6,5 foizni tashkil etib, yalpi ichki mahsulot hajmi 114,9 mlrd dollarni tashkil etgan. Aholi jon boshiga YAIM 39,1 mln so'mga yetdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 26,4 foizga, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmi 21,2 foizga, xizmatlar ko'rsatish hajmi 47,4 foizga ko'paygan bo'lsa, qurilish ishlari hajmi 7 foizga kamaydi[1].

Mahsulot ishlab chiqarish bilan aholi o'sishi o'rtasidagi mutanosiblikni saqlab turish uchun iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida yangi ishlab chiqarish obyektlarni ishga tushirish, mavjud ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, innovatsion qayta jihozlash talab etiladi. Bu borada, birgina 2024 yilda shu maqsadlarda xorijiy investitsiya 1,6 barobar o'sib, 34,9 mlrd dollarni tashkil qildi. Qiymati 10 mlrd dollarlik 242 ta yirik va o'rta loyihalar ishga tushdi, eksport hajmi 27 mlrd dollarga chiqdi[2]. Lekin bu kabi tadbirlar masalaning bir tomonini xalq etadi, xolos. Boshqa tomondan esa, zamonaviy insonning vaqt sayin ortib boryotgan borayotgan ehtiyojlarini qondirishning birdan bir yo'li moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarishni standartlashtirishdir. Chunki yer yuzidag sakkiz milliard aholining har biri uchun uning ko'ngliga mos ko'ylak bichib yoki surat chizib bo'lmaydi-ku! Shuning uchun yer yuzi aholisini shartli guruxlarga yoki toifaga bo'lib, ko'ylaklar bilan ta'minlash yoki ularga yoqadigan surat yetkazib berish mumkin. Buning uchun avvalo gurux yoki toifaga ma'qul ko'ylak yoki suratning standartlarini aniqlab olish, ishlab chiqarish jarayonini mazkur standartlar asosida tashkil etish kifoya"[3].

Bu kabi jarayonlarning shaxs ijtimoiy qiyofasiga ta'siri ijobiy xarakter kasb etadi. Mustaqillik yillarida mamlakat aholisi moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ko'plab iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan iqtisodiy islohatlar natijasida "mustaqillik yillari xalqimiz ongi, tafakkuri ancha o'zgardi. Birinchi galda olamga, jamiyatga, insonga munosabatda, turli voqea va hodisalarni, g'oyalarni va e'tiqodlarni idrok etishda, baholashda kommunistik tafakkurning tor partiyaviylik, sinfiylik meyorlari va tamoyillaridan, vulgar, jangovar ateizmdan voz kechildi va haqiqiy vijdon erkinligini ta'minlashga kirishildi[4]." Iqtisodiyot modernizatsiya qilish, mahsulot ishlab chiqarishni innovatsion o'zgaririb borish shaxsning iqtisodiy bilimlari ortishiga va yangi tajriba va ko'nikmalar shakllanishiga zamin yaratdi.

Ishlab chiqarishning standartlashtirilishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotga va mehnatga ijodiy yondashuv yo'qolishiga sabab bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida shaxs tafakkur erkinligi, fikrlash madaniyati cheklanishiga olib keladi. Mahsulot ishlab chiqarishda ijodiy yondashuv bo'lmasa, tafakkur erkinligi o'zgarishida va tafakkur yuritishda rivojlanish yo'qolishiga sabab bo'ladi. Darhaqiqat, yaratilishi zarur bo'lgan stolning parametrlari oldindan belgilab berilgan bo'lsa, fikrlab o'tirishga na hojat[5]?

Demografik o'sish sodir bo'layotgan dunyo davlatlarida bo'lgani kabi, mamlakatimizda ham bir xilda fikrlaydigan, standartlarga ko'ra fikr yuritadigan, mustaqil fikrga ega bo'lmagan kishilar soni ham ortib bormoqda. S.Choriyev o'tkazgan sotsiologik tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha, mustaqil fikrlash fuqarolarimizning 22,74 foizidagina yuksak darajada, 56,95 foizida o'rta darajada shakllangan. Salkam 20 foiz respondentlarda mustaqil fikrlash malakasi past darajada qaror topgan[6].

Mamlakat aholisining o'sish qishloq xo'jaligida ham tarkibiy o'zgarishlar qilishni talab qiladiyu Chunki mamlakatimiz aholisining katta qismi qishloq joylarda yashaydi. Shunga ko'ra qishloqda yashaydigan fuqarolarga munosib turmush sharoitini yaratish, qishloq xo'jaligida yangi ish o'rinlari yaratish, qishloq joylardagi mavjud ishchi kuchini

jalb qiladigan yangi tarmoqlar faoliyatini ishga tushirish davlat ahamiyatiga molik masalalar hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizda har doim qishloq aholisining munosib turmush sharoitini ta'minlashga qaratilgan samarali islohotlarni amalga oshirishga alohida e'tibor berib keladi. Qishloq xo'jaligi mamlakatimizda asosiy iqtisodiy tarmoqlardan biri bo'lib, yalpi ichki mahsulotning qariyb 27 foizni egallaydi, mamlakatdagi jami aholining 30 foizdan ortig'ini ish bilan ta'minlaydi. Buguni kunga qadar qishloq xo'jaligida 20 million gektardan ortiq yer, jumladan, 3,2 million gektar so'g'oriladigan yekin maydonlarida aholi ehtiyojlari uchun oziq ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur xomashyo yetishtirilmoqda[7]. 2019 yilda Qishloq xujaligini 2020- 2030 yillarda rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur Strategiya 2030 yilgacha tarmoqda band bo'lgan har bir kishiga o'rtacha mehnat unumdorligini 1,7 barobar yoki 6,5 ming dollargacha o'sishini ta'minlash; qayta ishlangan tayyor mahsulotlar hajmini 30 foizgacha oshirish; mahsulot eksportini 20 milliard dollargacha oshirishni nazarda tutadi[8]. Mazkur Strategiya dasturida amalga oshirilayotgan islohotlar va choratadbirlar majmuasi ham qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish, qishloq xo'jalikda qayta ishlangan mahsulotlar hajmini oshirish, bu sohada zamonaviy qayta ishlash korxonalarini tashkil etish va shu orqali qishloq aholisining turmush faravonligini va daromadlarini oshirishdan iboratdir.

Bu kabi islohotlar natijasida qishloq aholisida tadbirkorlik fazilatlarining rivojlanishi yuzaga keldi. Qishloq joylarda yangicha ko'rinishdagi birlashmalar, firmalar, turli hil tadbirkorlik su'bektleri vujudga kelmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining ortishi ham shu kabi islohotlar natijasidir.

Biroq amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan qishloq xo'jaligida mahalliy hokimiyat organlarining bu sohaga aralashuvi bugungi kunda ham mavjud. Mavjud qonunlarimizga ko'ra qishloq xo'jaligi tarmoqlariga bu kabi organlar aralashuvi taqiqlangan bo'lsada, asossiz turli teshiruvlar, turli tadbirlarga jalb qilish kabi holatlar hanzugacha mavjud. Bu kabi xolatlar qishloq aholisining yoki qishloq tadbirkorining o'z kasbiga, mehnatiga bo'lgan munosabati o'zgarishiga ta'sirini ko'rsatadi.

Shu bilan birga aholi o'sish sur'atlari bilan qishloq xo'jaligi sohasidagi korxonalar o'sish sur'atlarini bir biriga mutanosib emas. Qishloq aholisi tarkibida mehnatga layoqatli aholi soni ortib bormoqda, bu esa, yangi ish o'rinlariga bo'lgan talabning ortishini belgilaydi. Shunga ko'ra mamlakatimizda qishloq joylarida yangi ish o'rinlarini tashkil etishga qaratilgan islohotlar doimiy amalga oshirilib kelinadi. 2024 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Qishloq xo'jaligi korxonalarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida" qaror qabul qildi. Unga muvofiq, qishloq xo'jaligida soliq to'g'risidagi qonunchilik talablarini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish yo'li bilan tadbirkorlik subyektlariga soliq yukini qisqartirish nazarda tutadi. Masalan, 2023 yilning yanvar iyul oylarida respublikamizda qishloq va urmon xo'jaligi sohasida (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 6135 ta yangi korxonalar tashkil etilgan[9]. Lekin ko'pgina tashkil etilayotgan yangi ish o'rinlarining maoshi pastligi tufayli qishloq aholisini kengroq qamrab olish imkoni bo'lmayapti. Natijada qishloq aholisining ko'pgina qismi shahardan ish izlamoqda. Bu kabi holatlar ham shaxsning mehnatga bo'lgan munosabatining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda, hamda shaxs ijtimoiy qiyofasida boqimandalik, loqaydlik, nigilizm kabi illatlarning saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda[10].

Xulosa. Mamlakatdagi demografik o'sish jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarining o'zgarishiga olib keladi, bu o'zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy,

siyosiy va ma'naviy-madaniy oqibatlari esa shaxs ijtimoiy qiyofasida iz qoldiradi. O'zbekistonda keyingi yillardagi demografik o'sish ishlab chiqarish hajmlarining kengayishiga olib keldi, bu esa, bir tomondan, shaxs iqtisodiy bilim va ko'nikmalarining shiddatli tarzda rivojlanishiga zamin yaratdi, ikkinchi tomondan, bir qolipda, standart fikrlaydigan, erkin tafakkur yurita olmaydigan odamlar sonini ham ko'paytirdi[11]. Demografik o'sish qishloq xo'jaligi sohasida

yangi islohotlarni amalga oshirish lozimligini keltirib chiqarmoqda, bu esa qishloq aholisida yangi islohotlar bilan bog'liq tadbirkorlik xarakterining rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Lekin amalga oshirilayotgan islohotlarga qarmasdan qishloq aholisini tuluq yangi ish o'rinlariga qamrab olish imkoni bo'lmayapti, natijada ishsiz qolgan aholi tarkibida boqimandalik, loqaydlik, nigilizm kabi illatlar saqlanib qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. gazeta.uz/oz/2025/01/16/yim/
2. gazeta.uz/oz/2025/01/16/yim/
3. Чориев С. Ақл ва тафаккур. – Қарши: Насаф, 2006. – Б. 8.
4. Эркаев А. П. Тафаккур эркинлиги. – Тошкент: Маънавият, 2007. – Б. 6.
5. Чориев С. Ақл ва тафаккур. – Қарши: Насаф, 2006. – Б. 8.
6. Чориев С. Сиёсий етук шахс. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2004. – Б. 15.
7. Айсачев А. А. Қишлоқ хўжалиги корхоналари фаолиятининг статистик тадқиқоти ва истиқболларини баҳолаш // Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: ТАФУ, 2024. – Б. 169-172.
8. Айсачев А. А. Қишлоқ хўжалиги корхоналари фаолиятининг статистик тадқиқоти ва истиқболларини баҳолаш // Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: ТАФУ, 2024. – Б. 169-172.
9. Айсачев А. А. Қишлоқ хўжалиги корхоналари фаолиятининг статистик тадқиқоти ва истиқболларини баҳолаш // Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: ТАФУ, 2024. – Б. 169-172.
10. Боймуродов С. Б. Демографик вазиятнинг шахс ижтимоий қиёфасига таъсири: Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2011. – Б. 87-89.
11. Боймуродов С. Б. Демографик вазиятнинг шахс ижтимоий қиёфасига таъсири: Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2011. – Б. 87-89.